

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHNING METODIK TAHLILI

Xamzaqulov Erjigit Abdubasharovich

GulDPI "Pedagogika" kafedrası stajyor o'qituvchisi.

Savriddinova Mexrinov Ulug'bekovna

GulDPI "Pedagogika" fakulteti talabasi.

e-mail: xamzaquloverjigit25@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11157919>

Annotatsiya. Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda matematika darsliklaridagi qiyinchiliklar hamda o'quvchilar o'zlashtirishidagi muammolar. 3-sinf matematika darsligidagi ba'zi murakkab masalalarning yechimlari.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, matematika, pedagog, darslik, masala, metod, "Baliq skeleti", o'quvchi, boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi, ta'lim tizimi, dars.

METHODOLOGICAL ANALYSIS OF MATHEMATICS TEACHING IN PRIMARY CLASSES

Abstract. Today, elementary schools have difficulties with math textbooks, as well as problems with students' learning. Solving some difficult problems in a 3rd grade math textbook.

Key words: elementary grade, mathematics, teacher, textbook, task, method, "fish skeleton", student, primary education, teacher, education system, lesson.

МЕТОДИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. Сегодня в начальных классах трудности с учебниками по математике, а также проблемы с усвоением учащимися. Решения некоторых сложных задач в учебнике математики 3 класса.

Ключевые слова: начальный класс, математика, педагог, учебник, задача, метод, "рыбий скелет", ученик, начальное образование, учитель, система образования, урок.

Bugungi kunda butun dunyoda, shu jumladan, bizning yurtimizda ham bir qancha sohalarda keskin rivojlanishlar sodir bo'lmoqda. O'zbekistonda kundan kunga rivojlanish ta'lim sohasini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Ko'plab chet davlatlarining ta'lim tizimlari mamlakatimizga olib kirilib, shular asosida darslar tashkil qilinmoqda. Darsliklar ham rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimlari asosida chop etilmoqda. Shu o'rinda bugungi kunda ta'lim tizimimiz Finlandiya ta'lim tizimi asosida olib borilayotganiga e'tibor qaratishimiz darkor. Xilma-xil

darsliklar, ulardagi topshiriqlarning murakkabligi o'quvchilar o'zlashtirishida bir qancha qiyinchiliklar tug'dirishi bejiz emas.

O'quvchilar fanlarni qay darajada o'zlashtirishlari, avvalambor, boshlang'ich sinflarda olgan bilimlariga bog'liq. Axir biz uzluksiz ta'lim tizimini imorat deb oladigan bo'lsak, boshlang'ich ta'lim uning poydevoridir. Poydevor qanchalik pishiq bo'lsa, imorat shunchalik mustahkam bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qator fanlar ichida matematika fani anchagina qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Buning boisi darsliklarning murakkabligidir. Hozirgi kun matematika darsliklari nafaqat o'quvchilarni balki o'qituvchilarni ham o'ylantirib qo'ymoqda.


Malaka amaliyoti davrida olib borilgan kuzatishlar davomida biz o'qituvchi va o'quvchilar matematika faniga yanada ko'proq e'tibor qaratishlari kerakligiga amin bo'ldik. Bugungi kunda har bir o'qituvchi, har bir pedagog o'z ustida har kuni ishlamas ekan dars jarayonidan kutilgan samaradorlikka erishish mushkul.

Dars jarayonlarida turli xil interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilar mavzuni yaxshi o'zlashtirishlariga yordam beradi. O'qituvchi dars davomida turli xil metodlardan o'z o'rnida foydalanishi o'quvchi mavzuni yaxshi tushunishiga asos bo'ladi. Shu o'rinda bir qancha fanlarda qo'llansa bo'ladigan, o'quvchining yaxshi fikrlashiga yordam beradigan bir metod haqida aytib o'tamiz.

“Baliq skeleti” metodi. Ushbu metodni biz qaysi darsda, qanday mavzuda foydalanishimizga qarab o'zimizga moslab o'zgartirib olsak bo'ladi. “Baliq skeleti” metodida o'quvchilarga baliqning skeleti chizilgan qog'oz beriladi. So'ralgan ma'lumot bo'yicha o'quvchilar skeletning har bir qismlarini to'ldirishlari kerak. Kimning skeletida ko'p ma'lumot bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib hisoblanadi.



Boshlang'ich sinf matematika darslarida ushbu metoddan biz bir qancha usullarda foydalansak bo'ladi. Masalan, o'quvchilarga "Natijasi 24 chiqadigan ifodalar tuzing", - deyishimiz mumkin. Bunday shartdan 3-4-sinf o'quvchilari uchun foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Ular baliq skeletiga 4×6 , $11 + 13$, $24 \div 1$, $30 - 6$, 3×8 , $20 \div 4$ kabi bir qancha ifodalar yozishlari mumkin.



Boshlang'ich sinf matematika darsliklari murakkabligi jihatidan ko'plarning e'tiborini tortmoqda. Bir necha yil oldin 5-6-sinflarda o'qitilayotgan mavzular hozir boshlang'ich sinflarga anchagina qiyinchilik tug'dirmoqda.

Keling, boshlang'ich sinf matematika darsliklaridagi o'quvchilar o'zlashtirishi uchun murakkablik tug'dirayotgan bir nechta masalalarning yechimlarini ko'rib chiqamiz.


1. Qandolat fabrikasida 24 ta tayyor tort bor, har bir tortga beze yoki muzqaymoq qo'shilgan. Bezeli tortlar 15 ta, muzqaymoqli tortlar 19 ta bo'lsa, ham beze, ham muzqaymoq qo'shilgan tortlar nechta bo'ladi?

(Matematika 3-sinf, 2-qism, 24-bet)

Yechish:

$15 + 19 = 34$; $34 - 24 = 10$. Demak, ham beze ham muzqaymoq qo'shilgan tortlar 10 dona ekan.

Biz ushbu natijani diagramma ko'rinishida ham ifodalashimiz mumkin.



Bezeli

Muzqaymoqli

Javob: 10 ta tortga ham beze, ham muzqaymoq qo‘shilgan.

2. Ikkita yashikka jami 40 ta apelsin solingan. Har bir yashikdan bir xil miqdorda apelsin olingandan keyin, birinchisida 15 ta, ikkinchisida 9 ta apelsin qoldi. Dastlab har bir yashikda nechta apelsin bo‘lgan?

(Matematika 3-sinf, 2-qism, 62-bet).

Yechish: $15 + 9 = 24$, demak, hozir jami 24 ta apelsin qolgan.

$40 - 24 = 16$, ikkala yashikdan 16 ta apelsin olingan.

$16 \div 2 = 8$, har bir yashikdan 8 tadan apelsin olingan.

$15 + 8 = 23$; $9 + 8 = 17$; $23 + 17 = 40$.

Javob: Dastlab birinchi yashikda 23 ta, ikkinchi yashikda 17 ta apelsin bo‘lgan.

3. Aziza dugonalariga matematik boshqotirma aytyapti. U 8391276540 sonini yozib, shunday dedi: "Oldin bu sondan shunday beshta raqamni o‘chiringki, iloji boricha eng katta son hosil bo‘lsin. Keyin esa shunday 5 ta raqamni o‘chiringki, iloji boricha eng kichik son hosil bo‘lsin". Bu sonlar ayirmasini toping.

(Matematika 3-sinf, 3-qism, 106-bet).

Yechish : 8391276540 ushbu sondan dastlab eng katta sonni hosil qilishimiz uchun biz sonning boshidan (chap tarafd) boshlab eng katta raqamni qoldirib, kichkinalarini o‘chirishimiz kerak.

8 3 9 1 2 7 6 5 4 0

Shartga binoan 5 ta raqamni o‘chirdik. Shunda eng katta son 97654 hosil bo‘ldi.

Endi eng kichkina sonni hosil qilish uchun sonning boshidan (chap tarafd) boshlab eng kichkina raqamlarni qoldirib, eng kattalarini o‘chirishimiz kerak.

8 3 9 1 2 7 6 5 4 0

5 ta eng katta raqamlarni o‘chirganimizdan keyin bizga eng kichik son 12540 hosil bo‘ldi.

Masala shartida ushbu sonlarning ayirmasi so‘ralgan.

$97654 - 12540 = 85114$

Javob: 85114

4. Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuniga bag‘ishlangan tanlovda qatnashchilarga har bir to‘g‘ri javob uchun 3 ball beriladi, noto‘g‘ri javob uchun esa 5 ball olib

tashlanadi. Saidabror 20 ta savolga javob berib 36 ball to'plabdi. U nechta savolga to'g'ri javob bergan?

(Matematika 3-sinf, 2-qism, 68-bet)

Yechish : To'g'ri javoblar soni - X ; Noto'g'ri javoblar soni - $(20 - X)$

To'g'ri javoblar sonini X deb belgilab olsak, umumiy savollar soni 20 ta bo'lganligi uchun noto'g'ri javoblar soni $(20 - X)$ bo'ladi.

$$X \times 3 - (20 - X) \times 5 = 36$$

$$3X - 100 + 5X = 36$$

$$3X + 5X = 36 + 100$$

$$8X = 136$$

$$X = 17.$$

Javob : Saidabror 17 ta savolga to'g'ri javob

Tekshirish: $17 \times 3 - 3 \times 5 = 36$

bergan.

REFERENCES

1. Bukbayeva N.U va boshqalar "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent, 2007.
2. Jumayev M.E "Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi" T - "Arnoprent", 2005
3. Toshmuradov B "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni takomillashtirish" T, "O'qituvchi" 2000yil.
4. Xamzaqulov, E. (2024). DERIVATIVE OF A MODULAR FUNCTION AND ITS ANALYSIS BY LEARNING METHOD. Modern Science and Research, 3(2), 943-946.
5. Xamzaqulov, E., & To'xtayeva, A. (2024). THE CONCEPT OF NUMERIC AND LETTER EXPRESSIONS IN PRIMARY GRADES. EXPRESSION WITH VARIABLE. Modern Science and Research, 3(2), 90-93.
6. Raxmonov, J. T., Xamzaqulov, E. A., & qizi Xamzaqulova, S. S. (2023). BA'ZI ANIQMAS INTEGRALLARNI YECHISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA UNI TA'LIM METODI BILAN TAHLILI. Innovative Development in Educational Activities, 2(18), 87-91.